



TALABALARDAGI KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK AHAMIYTI

Seilxanova R.N.

Qoraqalpog‘iston tibboyot instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: talabalar, ijodiy faoliyat, kognitiv komponent, ijodiy kompetensiya.

Ключевые слова: студенты, творческая деятельность, когнитивная компонент, творческая компетентность.

Key words: students, creative activity, cognitive component, creative competence.

Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarning ingliz tili darslari orqali kreativligini rivojlantirish ta‘lim jarayonini yangi texnologiyalari vositasida tashkil etish, xorijiy tajribalar asosida kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya samaradorligini ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi asosida rivojlantirish, o‘qitish jarayoniga talabalarning ingliz tilidan kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga doir strateriyalar yaratilmoqda. Ta‘lim taraqqiyotining bugungi bosqichida “oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini yanada oshirish, o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish [1] ahamiyatli vazifaga aylanmoqda.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillar, usullari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari kabi masalalar A.R.Aripjanova, T.Aliboyev, N.I.Bayturayeva, D.Sh.Djurayeva, G.N.Ibragimova, M.V.Mamatqulova, D.M.Maxmudova, Z.T.Nishanova, M.Tilakova, O‘.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Ch.T.Shakirova, L.A.Qurbonova, Sh.A.Abdullayeva, B.R.Adizov, D.D.Muradovalar tomonidan tadqiq qilingan.

Kreativ o‘qitish muammolari M.H.Quvvatova [2], A.Aripjanova [3], G.Ibragimova [4], Sh.Pozilova [5] va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiy- metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi G.N.Ibragimovanning tadqiqot ishida kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui bo‘lib, u o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi deb ta’kidlaydi [6].

A.A.Aripjanova esa kreativlikni ranganish bo‘yicha pedagogik faoliyatning o‘ziga xosliklari va yondashuvlarni inobatga olib, pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini: faoliyatli, samarali, shaxsiy, muhitga doir, muammoli aspektlarda korib chiqish lozimligini aniqlagan.

Tadqiqotchi Sh.Pozilova oliy ta’lim muassasasi pedagog kadrlarini intellektual ijodkorligini rivojlantirish bilan birga ularning pedagogik faoliyatini kreativ olib borishda dizayn-fikrlash texnologiyasidan foydalanish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tkan. U tadqiqotida malaka oshirish jarayonlarida tinglovchining kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo‘naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash – kreativ o‘qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojni talab qiladi deya ta’kidlaydi [8].

Tadqiqotchi M.Quvvatova oliy ta’lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va pedagogik jarayon dinamikligini ta’minlashga qaratilgan o‘z-o‘ziga motivatsiya berish, geshtalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog‘liq o‘zgaruvchi jarayonga bo‘lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida takomillashtirgan [9].

Tadqiqotchi K.Malikov talabalarining mustaqil va ijodiy fikrlash mahoratlarini quyidagi 3 ta darajaga ajratgan:

Talaba muammoni yechish, topshiriqlarni bajarish yo‘llarini o‘zi izlaydi, mustaqil fikrlab, mulohaza yuritadi. Talaba berilgan topshiriq yoki vazifani mustaqil bajaradi, ammo ijodiy yondasha olmaydi. Mustaqil holda topshiriqni bajarishda muammolarni hal etadi, ammo natija qanchalik darajada to‘g‘riligini kuzatmaydi. Berilgan topshiriq yoki muammoli masalaga o‘xshashlarini tuza oladi.

Tadqiqotchi B.Nazarova har bir talaba o‘z amaliy faoliyatida fikrlashning mazmun-mohiyati, rang-barangligi, ko‘p qirrali xususiyatlarini hisobga olib, ularga ongli ravishda amal qilishlari lozimligini isbotlagan [10].

Tadqiqotchi G.Ibragimovanning fikricha, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning



rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi [11].

Kreativlik ma'lum tizimlarga asoslanadi va yangilik yaratishga xizmat qiladi. Kreativ jarayon o'zini o'zgaruvchan aqliy ketma-ketlik sifatida ifodalaydi va yangi g'oyalarning doimiy amalda qo'llanilishi bilan ularning baholanishi hamda qayta ishlanishini taqozo etadi. Asl, yangi, san'atga xos bo'lgan, arzirli yangi g'oyalar va mahsulotlar kreativlik natijasi ekanligini tadqiqotchilar isbotlab o'tgan [12].

Xorijiy til darslari o'tiladigan sinf xonasida darsni har xil ko'rinishdagi "o'yin, harakat, tajriba" kabi kreativ metodlar bilan ochib berish kerakligi ta'kidlangan [13].

Tadqiqotchi D.Murodova kreativlikning shakllanishida intellektual bilimning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini o'rgangan [14].

Tadqiqotchi X.Mamatova talabalarga kreativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning amaliy tatbiqi ularning faoliyatiga ikki xil yondashishni ko'rsatadi:

1. Guruh talabalari uchun umumiy yondashish.

2. Talabalarining ingliz tilini o'zlashtirgani darajasini hisobga olgan holda, yakkama-yakka, individual yondashish kerakligini ta'kidlagan. Shuningdek, kreativ dars metodlari o'rganuvchida mustaqil ravishda xorijiy tilda og'zaki va yozma tajriba-sinovlar o'tkazishni va ularni yanada rivojlantirish, o'zgartirish kabi holatlarni o'zlashtirishga imkon beradi. O'yin va tasavvurlarga boy bo'lgan topshiriqlar xorijiy tilni o'rganuvchilarni yanada faollashtiradi va tilni rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqlarini yanada oshirishga imkon tug'diradi. Kreativ metodlar darsni boyitadi va o'rganuvchilardagi kreativlik salohiyatini oshirishda o'z hissasini qo'shadi degan fikrlarni ilagri suradi [15].

Tadqiqotchi D.Maxmudovaning ta'kidlashicha, kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarining kreativ faoliyatini rivojlantirish jarayoni mutaxassisda kasbiy va kreativ kompetentlikni shakllantiradi [16]

Tadqiqotchi M.Tilakova kreativ qobiliyatning asosiy mezonlarini egiluvchanlik (aqliy tafakkur), tezkorlik (vaqt birligidagi g'oyalar soni), o'ziga xoslik (tafakkur, yangi g'oyalar), metafora (g'ayrioddiylik, g'aroyiblik), g'oya va tafsilotlarni idrok qilish, sezuvchanlik, qiziquvchanlik (hayratlanish qobiliyati, sinchkovlik, ochiqlik), aniqlik (aniq fikrlash qobiliyati), takomillashtirish, ijod mahsuliga tugallanganlikni baxsh etish, dadillik kabilarni tashkil qilib, ular zarur motivatsiya asosidagina rivojlanishini ta'kidlagan [17].

Bizningcha, ingliz tili darslari orqali kreativ qobiliyatni rivojlantirishga xos asosiy xususiyatlar qatoriga o'ziga xos intellekt, mustaqil bilim, dadillik, shaxsiy fikr; murakkab masala yechimini topishda egallangan erditsiya, bilim



va malakalarni hal etish; yaxlitlikda idrok etish; analiz-sintezlash qobiliyati; operativ uzatish; mavzuga doir mashqlarni turlicha idrok qilish, har xil vaziyatlarda o'zini nazorat qilia bilish; taqqoslash, intuitsiyani ishga sola bilish; o'zini namayon qilish; impravizator, taxmin qilish asosidagi tasavvur; boshlagan ishini yakuniga yetkazish, mavzuni takomillashtirish; taqdim ettirish, tubdan o'zgartirish va yangidan namoyon qila olishi zarurdir.

Bundan kelib chiqqan holda ingliz tili fanini o'qitishda kompetentli ta'limni rivojlantirish g'oyasi va uni pedagogik amaliyotga tatbiq etish asosida talabalarning umumiy tayyorgarlik sifatini oshirishga olib keluvchi maqsadlar belgilandi:

- talabalarining boshqa fanlardan olgan bilimlariga va hayotiy tajribalariga tayangan holda ingliz tili fanining eng muhim 4 ta ko'nikmasini oshirish hamda ingliz tilidan tinglab tushinish, yozish, nutq, gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- talabalarni hayotda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning ma'lum qonuniyatlar asosida sodir bo'lishini, ingliz tili matnlari asosida kreativ g'oyalar tuzish, rasmlar orqali kundalik turmushda foydalana olish hamda ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, ulardan kundalik hayotda foydalanishga o'rgatish;

- ingliz tili darslari jarayonlari, hayotiy muammolarni tushuna olish. Kreativ yondashuv o'quvchilarda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda faoliyat tajribalarini orttirish, yangi bilimlarni mustaqil tarzda izlab topishga tayyor bo'lish, kerakli qarorlarni mustaqil qabul qilish va o'z mas'ulligini anglab yetish kabi jihatlarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shuning uchun bilim mustahkam, ongli, operativ, moslashuvchan, chuqur va to'liq bo'lishi, ya'ni bilimlar sifat o'zgarishiga oid bo'lishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2. Quvvatova M.H. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023, -B.6.

3. Арипжанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. Т.: - 2017. 24 б.

4. Ибрагимова Г.И. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. –Т.: - 2017. – 24 б.

5. Позилова Ш. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019.



6. Ибрагимова Г.И. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. –Т.: - 2017. – 24 б.

7. Арипджанова А.Р. Таълимни ахборотлаштириш шароитида олий таълим муассасалари педагогларининг креатив салоҳиятини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. автореф. Т.: - 2017. 24 б.

8. Позилова Ш. Олий таълим муассасаси ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида креатив ўқитиш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019.

9. Quvvatova M.H. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. –B.11.

10. Назарова Б.А. Бўлажак ўқитувчиларда креатив ёндашув асосида тадқиқотчилик лаёқатини тарбиялаш. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. –В.13.

11. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. –B.10.

12. Dr. Frank-Hagen Hofmann, Psychosoziale Beratungsstelle, Heidelbergio (47p.)

13. Schmidt, Torben & Küppers_ Almut 2009. Inszenierungspotenziale im Englishunterricht. In: Praxis English Heft 5/2009, S.3

14. Мурадова Д. Педагогические основы развития креативного мышления учащихся в процессе обучения гуманитарным дисциплинам (7-8 классы). – Ташкент, 2016.

15. Маматова Х. Талабаларга креатив ёндашув асосида инглиз тили ўқитишнинг методикасини такомиллаштириш (мустақил таълим мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2021. –Б.14.

16. Махмудова Д. Муаммоли таълим технологиялари асосида талабаларнинг креатив фаолиятини ривожлантириш методикаси. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2022. –Б.14.

17. Тилакова М.А. VIII-IX синф ўқувчиларида синфдан ташқари машғулотларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчик, 2019. –Б.10.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada talabalarning ingliz tili darslari orqali kreativligini rivojlantirish, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar vositasida tashkil etish, xorijiy tajribalar asosida kadrlar tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi asosida rivojlantirish, o'qitish jarayoniga talabalarning ingliz tilidan kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga doir strateriyalar xususida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается развитие творческих способностей студентов посредством уроков английского языка, организация учебного процесса с помощью новых технологий, совершенствование процессов подготовки кадров на основе зарубежного опыта, развитие эффективности образования на основе интеграции образования, науки и производства, внедрения английского языка учащихся в учебный процесс, стратегии развития творческих способностей.

SUMMARY

This article discusses the development of students' creative abilities through English lessons, the organization of the educational process with the help of new technologies, the improvement of personnel training processes based on foreign experience, the development of educational effectiveness based on the integration of education, science and production, the introduction of students' English language into the educational process, strategies for developing creative abilities.